

## TEXNIK TOPSHIRIQNOMA



«TASDIQLAYMAN»  
**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB**  
**Strategiya bosh direktori:**  
**B.Raxmatov**

«7» avgust 2025 y.

№ 145

### Texnik topshiriq Poligrafiya mahsulotlarini yetkazib berish

Nº	Nomi	Talab
1	Buyurtmachi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
2	Manzil	100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, A. Navoiy ko'chasi, 18-A
3	Xizmat nomi	Poligrafiya mahsulotlarini yetkazib berish
4	Moliyalashtirish manbai	Bankning o'z mablag'lari
5	Texnik talablar	<p><b>Katalog:</b> o'lchami A-4, 300 gramm bo'rangan qogoz. Muqovasi mat-laminatsiya. Logotip lak bilan qoplanadi. Katalog ichki qismi 24 varaqdan iborat. Ichki qismi 170 gr qalinlikdagi bo'rangan qogo'z. Chop etish rangi 4+4. Chop etishdan so'ng varoqlarni yig'ish, buklash, jamlash, metal o'qli (skoba) sim yoki termo-yelim bilan tikiladi. Umumiy miqdori: 50 dona (donali chop etiladi).</p> <p><b>Tabriknoma:</b> 540 gramm qalinlikdagi touch cover qogozda chop etiladi, o'lchami 15x15 sm, 3D kumush folga va qizil ikki qirrali, ikki tomonloma 10 foizli 3D lak ishlatiladi. Tabriknomaga convert tayyorlanadi, 165 gramm baxmal qog'oz, 10 foizli 3D lak va 3D folga qo'llaniladi. Umumiy miqdori: 100 dona (donali chop etiladi).</p> <p><b>Buklet:</b> o'lchami 320x225mm, 250 gr qalinlikdagi bo'rangan qog'oz. Chop etish rangi 4+4. Chop etish xizmati ichiga mat-laminatsiya, kesish, buklash, qadoqlash ham kiradi. Umumiy miqdori: 10000 dona (donali raqamli printerda chop etiladi).</p> <p><b>Flayer:</b> o'lchami 284x115mm, 170 gr qalinlikdagi bo'rangan qog'oz. Chop etish rangi 4+4. Chop etish xizmati ichiga mat-laminatsiya, kesish, buklash, qadoqlash ham kiradi. Umumiy miqdori: 20000 dona</p>

		(donali raqamli printerda chop etiladi).
		<p><b>Bannerdan reklama afishasini yasash:</b> zichligi 420 gramm qora tayanch bilan 500x500 o'lchamdagи to'quv, eko-solventli printerda chop etish (qora podlojka bilan). Bannerni yog'och ramkaga o'rnatish va demontaj qilish. Umumiy maydoni: 500 kv.m. (donali chop etiladi).</p> <p><b>Orakal mahsulotlarini chop etish:</b> orakal 160 gramm micron qalinlikdagi ultra binafshaviy chop etish uskunasida tayyorlanadi. Demontaj va o'rnatish ishlari chop etish xizmati ichiga kiritilgan. Umumiy miqdori: 100 kv.m. (donali chop etiladi).</p> <p>Chop etish xizmatining ichiga mahsulotni buyurtmachi ko'rsatadigan manzilga yetkazib berish, shu jumladan o'rnatish xizmati ham kiradi. Mahsulotning dizayni buyurtmachi tomonidan taqdim etilgandan so'ng, mahsulot turiga qarab, yetkazib beruvchi uni 2 soatdan 12 soatgacha muddatda chop etishi va yetkazib berishi zarur.</p>
6	Yetkazib shartlari berish	Yetkazib berish muddati - shartnoma imzolangan kundan boshlab 240 kalendar kun davomida. Xizmatni yetkazib berish shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kun ichida boshlanishi lozim.
7	To'lov shartlari	Tomonlar shartnoma imzolagan kundan boshlab 5 bank kuni ichida shartnomaning miqdorining 5% miqdorida oldindan to'lov amalga oshiriladi. Shartnomaning 95% miqdori buyurtmachi tomonidan xizmatni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab amalga oshirilgan ishlar hajmidan kelib chiqib 10 bank kuni ichida qisman to'lab boriladi.
8	Kafolat muddati	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 240 kalendar kun ichida

kelishuvchilar: S.Niyazov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=p011f565&id=22cb7f9f-8f3b-4f9b-ad27-b6c9ebe59fc3>